

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	



O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent (PhD).
ORCID: 0000-0003-1372-094X

Maxmudaliyeva Manzuraxon Raxmon qizi

Qo'qon davlat universiteti
Geografiya va iqtisodiyot kafedrasida stajor o'qituvchisi

Toyirjonov Shokirjon

Qo'qon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni boshqarish va tartibga solish mexanizmi, turizm sohasida davlat-xususiy sheriklikning vazifalari va majburiyatlari, davlat-xususiy sheriklik modeli hamda turizm hamkorlik munosabatlarini o'rnatishdagi maqsadlar keng yoritiladi. Turizm destinatsiyalarida davlat-xususiy sheriklikning boshqaruv arxitekturasi, baholash va uzluksiz takomillashtirish sikllariga asoslangan konseptual modeli, xalqaro va ichki turistik bozorlarda O'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi, xalqaro tajriba asosida turizm sohasida davlat-xususiy sheriklikning integratsion mexanizmi masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, turizm destinatsiyalari, boshqaruv arxitekturasi, turizm infratuzilmasi, investitsiya, integratsion mexanizm, davlat manfaati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизм управления и регулирования государственно-частного партнёрства (ГЧП) в сфере туризма Узбекистана, задачи и обязанности государственно-частного партнёрства в туризме, модели ГЧП, а также цели установления партнёрских отношений в туризме. Анализируются архитектура управления государственно-частным партнёрством в туристических дестинациях, концептуальная модель, основанная на циклах оценки и непрерывного совершенствования, механизмы продвижения туристической продукции Узбекистана на международных и внутренних рынках, а также интеграционные механизмы ГЧП в сфере туризма на основе международного опыта.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, туристические дестинации, управленческая архитектура, туристическая инфраструктура, инвестиции, интеграционный механизм, государственный интерес.

Abstract. This article examines the mechanism of managing and regulating public-private partnership (PPP) in the tourism sector of Uzbekistan, the tasks and responsibilities of public-private partnerships in tourism, PPP models, and the objectives of establishing cooperation relations in tourism. It analyzes the management architecture of public-private partnerships in tourism destinations, a conceptual model based on evaluation and continuous improvement cycles, mechanisms for promoting Uzbekistan's tourism products in international and domestic markets, and the integration mechanisms of public-private partnerships in tourism based on international experience.

Keywords: public-private partnership, tourism destinations, management architecture, tourism infrastructure, investment, integration mechanism, public interest.

KIRISH

Global iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizidan ortig'ini tashkil etayotgan, har 11 ish o'rnidan biri aynan turizm bilan bog'liq bo'lgan strategik tarmoq sifatida qaralmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki madaniy merosni asrash, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va mamlakat brendini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, Xitoy, Argentina,



Indoneziya, Malayziya va boshqa ko'plab rivojlanayotgan davlatlar ushbu sohada davlat-xususiy sherikligi (DXSH)ga asoslangan innovatsion boshqaruv modellarini joriy etmoqdalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini zamonaviy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarda bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlar L. Duayer, P. Forsayt, A. Papateodoru, M. Kasim, X. Aydin, S. Maykl Xoll, D. Lezli, A. Matias, P. Niykamp, M. Sarmento, D. Buxalis, M. Zog, X. Ketu, U. Gartner kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizmni rivojlantirish va turistik sohani samarali boshqarishning nazariy-uslubiy masalalari V. I. Azar, E. I. Bogdanov, B. S. Bogolyubov, I. V. Zopin, H. I. Kabushkin, V. A. Kvartalnov, A. D. Chudnovskiy kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

O'zbekistonda turizm va turistik salohiyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari N. T. Tuxliev, M. Q. Papdaev, I. S. Tuxliev, M. M. Muxammedov, M. E. Po'latov, Q. J. Mipzaev, A. N. Norchaev, O. H. Xamidov, B. Sh. Safarov, B. X. To'qayev, M. T. Alimova, S. S. Ro'ziev, D. Z. Norqulova, A. K. Alimovlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy-tahliliy usul, abstrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ijtimoiy so'rovnomalar, statistik, iqtisodiy va qiyosiy tahlil kabi baholash usullaridan foydalanilgan. Manba sifatida 2025-yilga oid davlat rasmiy statistikasi, DXSh loyihalarining reyestrlari, xorijiy amaliyotlar, shuningdek, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy va xalqaro ekspertlarning ilmiy maqolalari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda DXSH qonuniy ravishda davlat va xususiy biznes o'rtasidagi "ijodiy ittifoq" sifatida tan olinadi, ular umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qiladi. Bunday sheriklikka boshqa ishtirokchilar ham qo'shilishi mumkin, jumladan, nodavlat muassasalar (tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar va ta'lim muassasalari kabi), notijorat uyushmalar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, manfaatdor fuqarolar va mahalliy hamjamiyatlar. Hamkorlik munosabatlari alohida loyihalardan tortib, uzoq muddatli yerdan foydalanish va iqtisodiy o'sish rejalarigacha bo'lgan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashadi.

Butunjahon turizm tashkiloti turizm sohasidagi DXSHda ishtirok etuvchi turli organlarning quyidagi vazifa va majburiyatlarini belgilab beradi.

DXSHning nazariy asoslarini umumlashtirish orqali uning tuzilishi, amal qilish mexanizmlari va rivojlanish qonuniyatlarini tizimli ravishda tushunish imkoni paydo bo'ladi. Mazkur yondashuv hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yuqoridagi nazariy va amaliy jihatlarni inobatga olgan holda, hududlarning samarali rivojlanishiga ko'maklashuvchi DXSHning konseptual modeli taklif etiladi (1-jadval).


1-jadval.

Davlat va xususiy sektor vazifalari

Davlat sektori	Xususiy sektor
Turizm haqida tasavvur	Hukumatlar va mahalliy jamoalarning ekologik hamda ijtimoiy muammolarni anglash
Xususiy sektor uchun barqarorlik va daromadni ta'minlaydigan qulay turizm muhitini yaratish, erkin kapital oqimini rag'batlantirish va investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashish	Ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; turizm xizmatlarini rivojlantirish hamda ulardan foydalanish uchun moliyaviy mablag'larga kirish
Tegishli infratuzilmani ta'minlash va uni saqlash	Etika, axloq va adolat tamoyillarini inobatga olgan holda tarmoq standartlarini tatbiq etishdagi mas'uliyat
Turizmning barqaror rivojlanishini rag'batlantiradigan yetarli bozor sharoitlarini yaratish	Madaniyat, an'analar va atrof-muhitni asrab-avaylashga ko'maklashish; sohaning rivojlanishi uchun asosiy yo'nalish sifatida sayyohlarni ta'limlash va yo'naltirish ishlariga rahbarlik qilish
Xususiy sektorni rag'batlantirish bilan bir qatorda, uni qo'llab-quvvatlash, qulay sharoitlar yaratish va zarur xizmatlar bilan ta'minlash	Mahalliy jamoalarni turizm rivojlanishiga jalb etish va ular olgan manfaatlardan qoniqishini ta'minlash

Moslashuvchan mehnat qonunchiligi bilan ta'minlash	Xizmat ko'rsatish sifatini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida kasbiy malakalarni o'rgatish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish
Barqaror tartibga solishni va adolatti soliq siyosatini ta'minlash	Sayyohlarning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash maqsadida hukumat bilan hamkorlik qilish
Barcha manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar asosida tabiiy, madaniy va ijtimoiy muhitni tartibga solish hamda muhofaza qilish modelini ta'minlash tizimini yaratish	Tadqiqotlarni rivojlantirish va statistik ma'lumotlar bazalarini yaratishga ko'maklashish
Mahalliy jamoalar farovonligini, shuningdek, mahalliy va chet ellik tashrif buyuruvchilar salomatligini ta'minlash	Operatsiyalar samaradorligini, turistik marketingni va xizmatlar sifatini oshiruvchi texnologiyalardan foydalanish
Investorlar hamjamiyatiga soha bozorlaridagi o'zgarishlarni idrok etish va tushunishni yaxshilash maqsadida ma'lumot berish uchun xususiy sektor bilan hamkorlikda tadqiqot tashabbusini amalga oshirish	—

Mazkur konseptual model turizm destinatsiyalarida DXSH samarali boshqarishga qaratilgan tizimli yondashuvni ifoda etadi. Unda turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlari, tashqi va ichki ta'sir omillari, shuningdek, ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kompleks tarzda qamrab olingan (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida o'rganilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- O'zbekiston sharoitida turistik mahsulotlarni targ'ib qilish mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, sohada salmoqli islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, infratuzilmadagi nomutanosibliklar, xizmatlar sifatidagi ayrim kamchiliklar va axborot ta'minotining yetarli darajada emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu omillar targ'ibot samaradorligiga bevosita ta'sir qilib, turistik oqimni mavjud salohiyat darajasigacha oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

- Taklif etilgan konseptual model turizm destinatsiyalarida DXShni boshqarishning asosiy tarkibiy elementlarini tizimli ravishda birlashtirib, tashqi muhit omillari, institutsional baza, hamkorlikni tartibga solish mexanizmlari hamda operatsion boshqaruv jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

- Turistik mahsulotni targ'ib qilish zamonaviy turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, reklama, PR, ko'rgazmalar va raqamli platformalar kabi instrumentlarning



uyg'un qo'llanilishi turistik mahsulotning tanilishi, iste'molchilar ishonchi va bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) turizm sohasini boshqarishda nafaqat moliyaviy mexanizm, balki kompleks institutsional tizim sifatida namoyon bo'lishi lozim.

2. Ko'p funktsiyali mobil ilova, interaktiv axborot kiosklari, QR-kod tizimi va mobil joylashuv ma'lumotlaridan foydalanish targ'ibot mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

3. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

4. Integratsiyalashgan boshqaruv modeli orqali kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori, ta'lim muassasalari, davlat organlari va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liq tizim sifatida shakllantirish.

5. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim, dual tayyorgarlik, raqamli monitoring va natijaga bog'langan moliyalashtirish mexanizmlarini birlashtirib, turizm sohasida xizmat sifati, ish beruvchi qoniqishi va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Carlos J. L. Balmaceda (2021). *Public-Private Partnerships in Tourism Destinations: Governance and Strategic Management*. Routledge.
2. Stephen J. Page (2019). *Tourism Management: Managing for Change*. Elsevier Butterworth-Heinemann.
3. World Tourism Organization (UNWTO) & World Bank (2023). *Key Factors for Successful Public-Private Partnerships in Tourism Infrastructure*. UNWTO Publications.
4. Морозов М. А., Морозова Н. С. (2020). *Экономика туризма: учебник и практикум для вузов*. Издательство Юрайт.
5. Черевичко Т. В. (2022). *Государственно-частное партнерство в сфере туризма: институциональный аспект*. Саратов: Новый ветер.
6. Восколович Н. А. (2021). *Маркетинг туристских услуг и механизмы управления развитием туризма*. Москва: МГУ имени М. В. Ломоносова.
7. Matayusupova D. B. (2024). *O'zbekiston mintaqalarida turizmni rivojlantirishda DXSh konseptual modeli*. Ilmiy maqola.
8. Turayev Z. N., Eshmuratov X. E. (2024). *Turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish yo'nalishlari*. Ilmiy maqola.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100